ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE STORY "STARS BURN FOREVER"
ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАССКАЗА «ЗВЕЗДЫ ГОРЯТ»
“YULDUZLAR MANGU YONADI” QISSASINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Xudayberganova Diana Vladimirovna
UrDPI talabasi
Email: kudaybergenovadiana@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida Vatan─kindik qoni to‘kilgan tuproq ekanligi, or-nomus bolalikdan shakllanishi, ota nasihatiga amal qilinishi kerakligi, halollik, poklik, sadoqat, xiyonat va adolat kabi insoniy hislatlar haqida so‘z yuritildi. Adib xalqning madaniyatini o‘chirib bo‘lmaydi, chunki uni yanada yorituvchi yulduzlar, avlodlar tug‘ulavaradi degan g‘oyani ilgari surgan. Asarda keltirilgan ba’zi bir xalq og‘zaki ijodi namunalari muhokama qilindi.

Аннотация. В этой статье рассказ Тогай Мурада «Звезды всегда горят» рассказывает о том, что Родина – это почва, на которой проливалась пупочная кровь, честь надо формировать с детства, нужно следовать советам отца, речь шла о таких человеческих чувствах, как честность, чистота, верность, предательство и справедливость. Адиб выдвинул идею о том, что культуру народа невозможно стереть, потому что родятся звезды и поколения, которые еще больше осветят ее. Обсуждались некоторые примеры фольклора, представленные в произведении.

Abstract. This article discusses the idea that the homeland is the soil where the umbilical cord blood was shed, that honor is formed from childhood, that the advice of a father should be followed, and such human qualities as honesty, purity, loyalty, betrayal, and justice are discussed in Togay Murod's story "The Stars Burn Forever." The writer put forward the idea that the culture of the people cannot be erased, because stars and generations will be born that will illuminate it even more. Some examples of folk oral art presented in the work were discussed.

Kalit so‘zlar: Bo‘ri polvon, Nasim, Momoqiz, Tilovberdi, or-nomus, qasam.

Ключевые слова: Бори борец, Насим, Момокиз, Тиловберди, честь, клятва.

Keywords: Bori the wrestler, Nasim, Momogiz, Tilovberdi, honor, oath

Tarbiya – shaxsning axloqiy, aqliy, jismoniy va ma’naviy jihatdan rivojlanish jarayoni bo‘lib, insonni yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya jamiyat, oila, maktab va muhit orqali uzluksiz davom etadi. U nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyat taraqqiyotida, yuksalishida ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida: “Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi” [5.211] deya ta’kidlab o‘tgan. Ya’ni, yaxshi tarbiya olgan inson vatan ravnaqi uchun foydasi tegishi bilan birga, o‘z hayotini ham muvaffaqiyatli va faravonli bo‘lishini kafolatlaydi. Uning samarali bo‘lishi uchun mehr va tushunish muhim. Jamiyat, oila, ta’lim dargohlari inson tarbiyasiga ta’siri ham alohida bir tamoyildir. Har bir shaxs u yaxshi hislatlimi yoki aksincha yomon illatli bo‘ladimi o‘zidan qaysidir ma’noda bir nima o‘rgatadi. Buni Tog‘ay Murod asarlarida ham uchratishimiz tabiiy. O‘zbek adabiyotida samarali ijod qilgan, o‘tgan asrning zabardast yozuvchilardan biri bo‘lib, epik janrda barakali ijod qilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Asl ismi Tog‘aymurod Mengnorov bo‘lib, 1948-yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi Xo‘jasoat qishlog‘ida tug‘ilgan [2.528]. Bolaligi, yoshligi aynan shu qishloqda o‘tgan. Adibning asarlarida vatanga muhabbat, sadoqat, adolat va halollik kabi hislatlar ulug‘lanadi. Buni uning eng birinchi qissalaridan bo‘lgan “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan ham bilib olsak bo‘ladi. Ushbu asar adibni nomini tanitgan va yuqori darajaga olib chiqqanligi bilan ham boshqa asarlaridan ajralib turadi. Qissaning bosh g‘oyasi uzoq vaqtdan beri davom etib kelayotgan milliy qadriyatlar, to‘y-hashamlar va an’analarning ahamiyati va o‘rni haqidadir. Ajdodlarimiz amal qilgan udumlarni qadrlash va ularga hurmat ko‘rsatish bilan birga, uni kelajak avlodga yetkazib bersh ham maqsadga olinganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega. Xalq og‘zaki ijodidan bir qancha o‘yinlar nomi tilga olingan. Masalan: “Bolalar to‘da-to‘da bo‘lib, yong‘oq, oshiq, shumshak, quloq-cho‘zma o‘ynadi. Do‘l, g‘irboydi, chillak, zuvillatar o‘ynadi”…[4.4] deya bolalik, beg‘uborlik davrlarini shu tarxda o‘tkazganligini aytib o‘tgan. Asarning tarbiyaviy jihati sifatida shuni ayta olamizki, bugungi kunda zamonaviy, rivojlangan davr talabi telekommunikatsiya, sun’iy intellektlar sababli yoshlar bunday o‘yinlarni o‘ynash, umuman ular haqida ma’lumotga ega emas desak adashmagan bo‘lamiz. Lekin, shu asarni mutolaa qilish davomida o‘tgan asrda shunday o‘yinlar bo‘lgan ekanligi, ota-bobolarimiz vaqtini shu tarzda chog‘ o‘tkazganligini bilib olishimiz mumkin. Asarning markazida ya’ni bosh qahramoni Bo‘ri polvon timsoli turadi. Uning xarakterida haqiqiy er yigitga lozim bo‘lgan hislatlar mujassamlashgan. Polvon obrazi orqali o‘zbek yigiti qanday bo‘lishi, or-nomus, vijdon, mardlik, halollik, vadaga vafo va sadoqat kabi insoniy tuyg‘ulari yorqin aksini topgan. Bo‘ri polvonning sof muhabbati yaqin do‘sti Nasim polvon tomonidan poymol bo‘lishi tasvirlangan. Bo‘ri Momoqizni yoqtirib qolganini, buni o‘ziga aytib uni xafa qilib qo‘yishdan cho‘chishini do‘stiga aytadi. Og‘aynisi bo‘lsa o‘tada yolg‘on gap chiqarib yigitni qizga yomon ko‘rsatadi. Aytmagan gapini aytdi deb quyidagicha qasam ichadi: “Mana qiblaga qarab aytaman: agar yolg‘on aytsam ko‘r bo‘layin“ [4.22] deb bir xil yolg‘on vadani Bo‘ri va Momoqizga berib qo‘ygani natijasida, uning dastlab bir ko‘zi keyinchalik, ikki ko‘zi ham ojiz bo‘lib qolgani bu judayam achinarlidir. Chunki Momoqizga erishish yo‘lida ishlatilgan yolg‘oni, oxir-oqibat chinga aylanadi. Adib bu qissa orqali insonlarni to‘g‘ri so‘z bo‘lishga chorlagan. Voqealar rivojida yana bir narsani aytishimiz mumkinki, polvon milliy sportimiz bo‘lmish kurash bilan shug‘ullanib, ajdodlariga munosib davomchi bo‘lgan. U 30 yoshga kirguniga qadar turmush qurmagan va shu vaqtgacha yiqilmagan. Bir kuni Ismoil bilan bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchraydi. Bu ham birinchisi ham oxirgisi bo‘lib qoldi. Yana bir kurashda u bilan bellashib Ismoilni mag‘lub qiladi. Polvonning 4 nafar qizi bo‘ladi. Yaratgandan zurriyot so‘rab o‘gil farzand ko‘radi. Uning ismini Tilovbergan qo‘yadi. Yigit ham otasi kabi, zabardast, baquvvat, kuchli, matonatli, bir so‘zli bo‘lib voyaga yetadi. Tilovberdi bilan Nasimning o‘g‘li Abray o‘rtasidagi kurashda hakam bo‘lib turgan Bo‘ri polvon o‘g‘lining halol yiqmaganligini aytadi. Yana bir bora bo‘lgan kurashda Tilovberdi mag‘lub bo‘ladi va otasidan norozi bo‘lib turganida, otasi unga qarata: “Nima, haromni halol deb imonimdan kechayinmi?”[5.91] deb hatto o‘z bolasiga ham adolatli tarzda hukm chiqarganini ko‘rishamiz mumkin. Garchan, Tilovberdi mag‘lub bo‘lgan bo‘lsa ham, ota-bobolari va avlodlari yulduzi mangu yonadi…

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘zbekiston qahramoni Said Ahmad adib haqida shunday deydi: “Tog‘ay Murod adabiyotga tutab emas, yonib kirdi. Uning qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirsangiz ham o‘zbekligi bilinib turadi”[3.3]. Umuman yozuvchi qissalaridagi milliylik, o‘zbek millatining boshqa bir xalqlardan ajralib turishi bilan yuqori qiymatga ega. Zero, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida: “Tarix

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

xotirasi, xalqing, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi” [1.127]deya xitob qiladi. Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi yuqoridagi fikrlarning davomi desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki yozuvchi mazkur asarni milliy sport bo‘lmish kurash va polvonlarning o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabati zamiriga qurgan. Haqiqiy er yigit sifatida Bo‘ri polvon obrazi yorqin aks ettirilgan. Nasim polvon timsolida esa do‘stga xiyonat qilgan va ishonchni oqlamagan xoin polvon obrazi ochib berilgan Tog‘ay Murod asarlaridagi g‘oyada qishloq hayoti, u bilan bo‘ladigan voqealar yetakchi o‘rin egallagan. Biz o‘ylaymizki, bu asar bir necha asr davomida o‘z qiymatini, qolaversa, milliy xalq o‘yinlari, qadriyatlar, urf-odatlarimizni yuqori darajada saqlab qoladi va shu qissa orqali yetkazib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.–Toshkent: “O‘ZBEKISTON”, 2003. – 301b

2. N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent : “O‘qituvchi”, 1999. ─543b.

3. Tog‘ay Murod Ot kishnagan oqshom. –Toshkent: “Nurafshon─kitob─ta’minot”, 2022. – 174b

4. Tog‘ay Murod Yulduzlar mangu yonadi.–Toshkent: Ziyo nashr, 2020. –110 b

5. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. ─Toshkent: “O‘ZBEKISTON”, 2022. ─414b.